

## YOSHLARNING BIZNES BOSHQARUV QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH

**Rahmonberdiyev Murodbek Karimberdiyevich**

*Jizzax shahri Sambrahm universiteti "Biznes boshqaruv" fakulteti magistranti  
O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Jizzax viloyati Kengashi raisi "Milliy tiklanish"  
demokratik partiyasi Jizzax viloyati Kengashi deputati*

**Annotatsiya:** bizga ma'lumki, maktab va universitet o'qituvchilarining aksariyati korporativ va biznes tajribasiga ega emas. Shuning uchun ular o'qitishlari mumkin bo'lgan narsalar bu rasmiy ta'lim va kitoblardan olgan nazariy bilimlaridir. Biroq korporativ ish maktablarda o'rgatiladigan bilimardan tubdan farq qiladi. Shuning uchun maktablar va universitetlarni haqiqiy biznes dunyosi bilan bog'lash tavsiya etiladi. Bu yerda haqiqiy ish tajribasiga ega bo'lgan odamlar talabalarga real hayotiy misollar bilan ba'zi ma'ruzalar o'qishlari mumkin. Agar rasmiy ta'lim yaxshi tajribaga ega bo'lgan ishbilarmon tadbirkorlar bilan talabalar uchun murabbiylik va mentorlik dasturlari o'rnatilsa, bu yoshlarda liderlik, innovatorlik va tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirishga tubdan yordam beradi

**Kalit so'zlar:** biznes, liderlik, boshqaruv, qobilyat, jamoa, innovatsiya, kreativlik.

**Аннотация:** как мы знаем, большинство преподавателей школ и университетов не имеют корпоративного или делового опыта. Следовательно, они могут преподавать формальное образование и теоретические знания, полученные из книг. Однако корпоративная работа принципиально отличается от знаний, которым учат в школах. Поэтому рекомендуется связать школы и университеты с реальным миром бизнеса. Здесь люди с реальным опытом работы могут прочитать студентам несколько лекций с реальными примерами. Если формальное образование устанавливает программы наставничества и наставничества для студентов с опытными предпринимателями, это в корне способствует развитию лидерских качеств, инноваций и предпринимательских способностей у молодых людей

**Ключевые слова:** бизнес, лидерство, менеджмент, способности, команда, инновации, креативность.

**Annotation:** as we know, most school and university teachers do not have corporate and business experience. Therefore, what they can teach is the theoretical knowledge they receive from formal education and books. However, corporate work is fundamentally different from the knowledge taught in schools. Therefore, it is recommended to connect schools and universities with the real world of business. Here, people with real work experience can give students some lectures with real-life

examples. If formal education is established coaching and mentoring programs for students with business entrepreneurs with good experience, this will radically contribute to the development of leadership, innovation and entrepreneurial abilities in young people

**Keywords:** Business, Leadership, Management, Ability, community, innovation, creativity.

## KIRISH

“Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat” – deya ta’kidlagandi davlatimiz rahbari.<sup>1</sup>

Zamonaviy boshqaruvning mahorati - jamoaning maqsadga intilishini ta'minlashdir. Ushbu fikrni pedagogik psixologiyadagi holat bilan qiyoslasak, quyidagi misol o‘rinli bo‘lardi. Bola o‘z rivojlanishida hamma me'yorlar bo‘yicha ulg‘ayib borayotgan bo‘lsa, ota-ona uning o‘shigiga deyarli aralashmaydi va lekin ulg‘ayishida biron muammo yuzaga kelsa, darhol kerakli choralar ko‘riladi. Jamoani boshqarishda ham rahbar, birinchi navbatda, maqsadga erishish sharoitini yaratishi va xodimlar harakatiga kam aralashuvi yuksak boshqaruv belgisidir.

Shunday qilib, «lider» so‘zini faqat «yetakchi» atamasi bilan almashtirish liderlik holatining psixologik talqinini tor doiraga kiritib qo‘yadi. Ushbu muloxazadan kelib chiqqan holda tadqiqotimizda «lider» so‘zidan foydalanishni ma'qul deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, «lider» so‘zidagi izohiy ma'noni anglab olish o‘zbek kitobxonlari uchun tanish xoldir.

Shaxsning liderlik imkoniyatini rivojlantirishning zamonaviy yondoshuvlaridan biri, insonda shakllangan qobiliyatga suyanishni va shu qobiliyatni imkon bergan vaziyatda namoyon etilishini taqozo etadi. Bunday yondoshuv «situativ liderlik» deb atalib, unda lider deb, tan olingan shaxsning umumiy maqsadga erishish yo‘lida muammoli vaziyatda o‘z qobiliyatini namoyon eta olishi tushuniladi.

Barcha ta'lim tizimida yoshlarning ijodiy iste'dodlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratish lozim. O‘qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri – yoshlarning tashabbuslari, innovatsion g‘oya va fikrlarini, iste'dod va iqtidorini o‘z vaqtida ko‘ra olishi va uni ro‘yobga chiqarish uchun ko‘makdosh bo‘lish.

Yoshlarda yetakchilik qobiliyati va boshqaruv mahoratini rivojlantirish orqali yuksak ma'naviyatli yetakchi yoshlarni tarbiyalash, ularni mamlakatimiz taraqqiyoti va uning istiqboli uchun yo‘naltirish talab etiladi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xaqlaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko‘p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. O‘zbekiston rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miqyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, xaqlaro terrorizm va ekstremizm shiddat bilan o‘rib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi.

Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O‘zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.

Biznesni boshqarish – kompaniya yoki tashkilotni samarali boshqarish va nazorat qilish jarayonidir. Biznesni boshqarish kuchli yetakchilik, tashkiliy va muammolarni hal qila olish qobiliyatini, shuningdek, moliyaviy, iqtisodiy va bozor tendensiyalarini tushunishni talab qiladi. Soha doimiy ravishda rivojlanib boradi va biznesni boshqarishda muvaffaqiyat ko‘pincha tajriba, ta’lim, doimiy o‘rganish va o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishga tayyorlikni talab qiladi.

Biznes menejeri operatsiyalar, moliyaviy natijalar, inson resurslari, marketing va kompaniyaning kundalik faoliyatining boshqa jihatlarini nazorat qilish uchun javobgar hisoblanadi. Ular, shuningdek, strategiyani ishlab chiqish va amalga

oshirishda, tashkilotning umumiy muvaffaqiyatiga ta’sir qiluvchi qarorlarni qabul qilishda ishtirok etishlari mumkin.

### ASOSIY QISM

2024-yil O‘zbekistonda "Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili" deb e’lon qilindi. Yangi 2024 yil arafasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigi e’lon qilindi. Tabrikda 2023 yilda hayotimizda chuqur iz qoldirgan asosiy tadbirlar haqida bayon etilib, tariximizda ilk bor xalqimiz referendum yo‘li bilan yangilangan Konstitutsiyamizni qabul qilganligi alohida ta’kidlab o‘tildi. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “...albatta, hayot bor ekan, uning yutuq va quvonchlari, tashvish va muammolari ham bo‘lishi tabiiydir. Ammo inson va xalq aql-zakovati, halol mehnati, mustahkam irodasi bilan har qanday sinovlardan munosib o‘tishga qodir”. Mamlakatimizga millionlab xorijliklar tashrif buyurib, olib borilayotgan bunyodkorlik ishlariga ijobiy baholarini berishdi. Prezidentimiz tomonlaridan xalqaro maydonda muhim tashabbuslar ilgari surildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Inson qadrini ulug‘lash, aholimiz manfaatlarini ta’minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish kabi muhim vazifamizni hayotga tadbiiq etish maqsadida 2024 yilni mamlakatimizda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”, deb e’lon qilindi.

Bizningcha, “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash” degan iboraning tagida olam-olam ma’no mujassam.

Avvalo, mamlakatimiz yoshlar mamlakati. Aholimizning 60 foizdan ortig‘ini yoshlar tashkil etadi. Bu degani maktabgacha ta’lim qamrovini oshirish, xalq ta’limi tizimidagi muammolarni yechish va ta’lim sifatini oshirish choralarini ko‘rish, bu oliy ta’lim tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, oliy ta’limni sifat jihatdan yuqori bosqichga olib chiqish, bu oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimidagi muammolarni bartaraf etish, yoshlarga kasb-hunar o‘rgatish tizimini mukammallashtirish, umuman yoshlar uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish va h.k. Har yili mamlakatimiz aholisi 900 mingdan ortiq nafarga ortayotganligi esa ushbu masalalarga tizimli va tezkor yechimlar topishni taqozo etadi.

Endi “biznesni qo‘llab-quvvatlash” deganda nimalarni tushunamiz, shu masalaga ham bir diqqatimizni qaratsak. Avvalo “Biznes” so‘zining lug‘aviy ma’nosiga e’tiborimizni qaratsak, inglizcha business – ish, mashg‘ulot, korxonalar, degan ma’nolarni anglatadi. Demak, biznesni qo‘llab-quvvatlash deganda bandlikni, mashg‘ullikni, korxonalarini qo‘llab-quvvatlashni tushunishimiz kerak. Shuningdek, biznes deganda, faqat pul topishga qaratilgan sohani emas, balki doimiy ravishda e’tiborga, qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoji bor sohani tushunishimiz lozim. Ya’ni davlat tomonidan biznes qanchalik qo‘llab-quvvatlansa, biznes ham mamlakatning rivojiga, taraqqiyotiga, xizmatlar sifatining oshishiga, mamlakat imijining ko‘tarilishiga va alaloqibat xalqning farovonligiga xizmat qiladi. Biznes qanchalik rivojlansa, unga

shunchalik ko‘p ishchilar kerak bo‘ladi, bu esa aholi, ayniqsa, yoshlar bandligini ta‘minlaydi, yoshlarning noqonuniy migratsion jarayonlarga jalb etilishini kamaytiradi.

Shaxsning yetakchilik imkoniyatini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlaridan biri insonda shakllangan qobiliyatga suyanish va qobiliyatni imkoniyatga qarab namoyon etishdir. Bunday yondashuv «vaziyatli yetakchilik» deb ataladi, unda yetakchi deb tan olingan shaxsning umumiy maqsadga erishish yo‘lida muammoli vaziyatda o‘z qobiliyatini namoyon eta olishi tushuniladi.

Bu nazariyaga binoan, guruh bir necha yetakchiga ega bo‘lishi mumkin, kezi kelganda, har bir jamoa a‘zosi muammoli vaziyatni hal etish borasida o‘z qobiliyat va imkoniyatini namoyish eta oladi. Samarali faoliyat olib boruvchi rahbar o‘z jamoasida aynan shunday muhitni yaratishi kerakki, har bir xodim zarur vaziyatda o‘z imkoniyatini ishga solish orqali muammoli vaziyatni hal etishda faol qatnashishi va boshqaruv jarayonida ishtirok etayotganini anglasin. Buning uchun jamoa har qanday vaziyatni hal etishda mas‘uliyatni his qiluvchi va professional xodimlarga ega bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, guruhda shunday xodimlar ham borki, ular yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni hal eta oluvchi universal qobiliyatga ega.

Yoshlar yetakchilariga xos xususiyatlarni quyidagi toifalarga bo‘lish mumkin:

- ishonch - o‘z bilim va tajribasini qo‘llash;
- faollik - g‘ayrat bilan harakat qila olish;
- tashabbuskorlik - faollikning ijodiy namoyon bo‘lishi, g‘oyalar, takliflarni ilgari surish;
- bilimdonlik - ishni chuqur bilish orqali namoyon qilish;
- kirishimlilik - o‘zgalar bilan muloqotga tez kirishish, samimiy bo‘lish, insonlararo muloqotga ehtiyoj;
- zehnlilik - voqea-hodisaning mohiyatini tezda anglash, uning sabab va natijasini oldindan ko‘ra bilish, eng muhimini aniqlay olish;
- qunt-matonatlilik - iroda kuchini namoyon qila olish, qat‘iyatlik, ishni yakuniga yetkaza olish;
- dadillik - his-tuyg‘u va harakatlarini, ayniqsa, qiyin vaziyatlarda nazorat qila olish;
- ishonch - o‘z bilim va tajribasini qo‘llash;
- faollik - g‘ayrat bilan harakat qila olish;
- tashabbuskorlik - faollikning ijodiy namoyon bo‘lishi, g‘oyalar, takliflarni ilgari surish;
- bilimdonlik - ishni chuqur bilish orqali namoyon qilish;
- kirishimlilik - o‘zgalar bilan muloqotga tez kirishish, samimiy bo‘lish, insonlararo muloqotga ehtiyoj;



- zehnilik - voqea-hodisaning mohiyatini tezda anglash, uning sabab va natijasini oldindan ko‘ra bilish, eng muhimini aniqlay olish;
- qunt-matonatlilik - iroda kuchini namoyon qila olish, qat'iyatlik, ishni yakuniga yetkaza olish;
- dadillik - his-tuyg‘u va harakatlarini, ayniqsa, qiyin vaziyatlarda nazorat qila olish;

Yetakchining asosiy xususiyatlaridan biri - yoshlar orasida “bir qadam oldin”da bo‘lish. U yangiliklardan doimo xabardor, boshqalar uchun ochiq bo‘lmagan axborotga ega bo‘lishi kerak. Barcha jabhada yoki sohada axborotga egalik qilish boshqalardan ustun bo‘lish imkonini beradi. Yetakchi bunday manbani qayerdan, qanday topishni yaxshi biladi. Bunday axborotga ega bo‘lmagan o‘spirinlar uning o‘rnini xayol, gumon va shubha bilan to‘ldiradi. Ular hayotidagi unutilmas kun yoki umuman bo‘lmagan voqealar bilan o‘rtoqlashadilar, bunday narsalarni yaxshi qabul qiladilar. Shu tariqa o‘spirinning yetakchilik xususiyatlari o‘z fikrini erkin bildirishida namoyon bo‘ladi. Yoshlar yetakchisi aniq dalil va isbotlar bilan o‘z bilimini boyita oladi. Bunday holatda yetakchiga nisbatan ishonch ortadi.

Yosh yetakchining yana bir xususiyati shundaki, u o‘ziga xos va takrorlanmas fikrlarni dadil bildira oladi. U fikrlarini qiziqarli tarzda ifodalaydi va boshqalardan ham dadillik kutadi. Bunday xususiyatga ega bo‘lgan yetakchiga yoshlar ishonadi va unga ergashadi. Shuning uchun yoshlarga yetakchilik xususiyatlari bilan birga axloqiy qoidalar asosi va ko‘nikmalarini singdirish hamda har bir xatti-harakatning natija va oqibatlarini anglashni o‘rgatish kerak. Bu, o‘z navbatida, barkamol, yetuk insonni shakllantirish imkonini beradi. Yoshlar va o‘spirinlar ichida turli ijtimoiy guruhlar, harakatlarga a'zo bo‘lish alohida ahamiyat kasb etadi.

Rahbar uchun zarur xususiyatlardan yana biri - shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi. O‘ziga ishonchi bo‘lmagan rahbar vaziyat o‘zgarishi sababli o‘z qarorini o‘zgartirishi tabiiy. Bunday jamoada xodimlar o‘z rahbarini suyanchiq sifatida ko‘rmaydilar. Yetakchi ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy holatlarda sherigi yoki hamkorida ishonch uyg‘otishi, ishning muvaffaqiyatiga kafolat berishi, mas'uliyatni his etishi zamonaviy rahbar uchun muhim fazilat ekanini anglashi lozim. Bu jarayonda “ishonch” tushunchasi asosiy o‘rin egallaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, yetakchi shaxs tug‘ma qobiliyatining yetarli darajada shakllanganligi bilan harakterlanadi. Yuqorida aytganimizdek, yetakchining asosiy xususiyatlaridan biri - guruh manfaati haqida g‘amxo‘rlik. Shuning uchun “yetakchi” ta'rifidagi asosiy ma'no shaxsning vaziyatni muvaffaqiyatli hal eta olish qobiliyati va guruh maqsadi yo‘lidagi jonbozligi deb tushunilishi mumkin.

Yetakchilikni rivojlantirish aniq maqsadga yo‘naltirgan holda tegishli ko‘nikmalarni shakllantirish hamda mustahkamlashdir. Yoshlar tashkilotida yetakchilik bilan boshqarish muammosining ushbu jihati yetakchilik qobiliyatini

o‘rgatish hamda o‘zi ham o‘rganish, motivlashtirish, treninglar va amaliy tajriba orqali yanada rivojlantirish imkonini hisobga oladi.

### XULOSA

Jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonida yoshlarning ilmiy salohiyatini rivojlantirish va munosib ta’lim olish orqali jamiyat hayotida faol ishtirok etishi muhimligi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham mustahkamlangan. Jumladan, yoshlarda zamonaviy iqtisodiyot va tadbirkorlik uchun zarur bo‘lgan yangi ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan yangi ta’lim dasturlarini joriy qilish, tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirish imkonini beradigan yoshlar kichik sanoat zonalarini tashkil etish rejalashtirilgan. Bu tashabbuslar yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni yanada rivojlantirish barobarida yangi ish o‘rinlari yaratish, ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Yoshlarning shaxsiy salohiyatini takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy va madaniy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash strategiyaning muhim qismidir. Prezidentimiz yigit-qizlarning o‘zini ijodiy va madaniy jihatdan namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish zarurligini ta’kidlab keladi. Shu bilan birga, yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash va ajrimlar muammosini hal etish ham O‘zbekiston hukumatining e’tibor markazida. Mazkur yo‘nalishda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan maslahat dasturlari taklif etilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zining Yangi yil tabrigida bu omillar kuchli iqtisodiyotga erishish va aholi hayotini yaxshilashda muhim ekanini qayd etdi.

Yurtimizda tadbirkorlik azaldan xalqimiz uchun xos bo‘lgan va jamiyatda yuksak qadrlangan. Xususan, Amir Temur o‘z saltanatida tadbirkorlar, shijoatli insonlarni g‘oyat qadrlagan: “Tajribamda ko‘rilganki, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, jang ko‘rgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. Chunki tajribali bir kishi minglab kishiga ish buyuradi.”

Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish, xususan, yoshlarning biznes g‘oyalarini amalga oshirishga har tomonlama ko‘maklashish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hududlarda oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga, ularning barqaror va qo‘shimcha daromad manbaiga ega bo‘lishiga, milliy hunarmandchilik yanada rivojlanishiga, xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslari amalga oshirilishiga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g‘oyalari va loyihalari ro‘yobga chiqishiga hamda shu asosda aholining bandligi ta’minlanishiga zamin yaratilmoqda.

Aholining mehnat orqali daromad topishga bo‘lgan qiziqishini keskin oshirish, ayniqsa muhtoj oilalarning hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa tadbirkorlik faoliyatini, shuningdek, hududlarda foydalanilmayotgan binolarda ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishni, aholi tomorqalari va bo‘sh ekin maydonlaridan unumli

foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bilan bog‘liq loyihalarni imtiyozli shartlarda moliyalashtirishni tizimli ravishda davom ettirishni taqozo etmoqda. Respublika hududlarida aholining daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishiga, oilaviy tadbirkorlik rivojlanishiga har tomonlama ko‘maklashish va mazkur yo‘nalishdagi ishlarni tizimli tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning mustahkam qonunchilik va huquqiy asosi shakllangan bo‘lib, u muntazam ravishda takomillashtirib borilmoqda. Bu soha uchun soliq va moliyaviy munosabatlarda katta imtiyozlar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi va biznesning qonuniy manfaatlari muhofazasini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi faoliyati tubdan takomillashtirilishini nazarda tutadi. Farmonda Savdo-sanoat palatasining tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatiga ko‘maklashish, davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlik, tadbirkorlik sub‘yektlarini o‘qitish va kadrlar tayyorlash, tashqi iqtisodiy faoliyat va investitsiyalarni jalb qilish **kabi** aniq va eng muhim vazifalari belgilab berilgan.

Xalq farovonligini oshirish maqsadida “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz”, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, tomorqani rivojlantirish kabi dasturlar qabul qilindi. Bu dasturlar aholi bandligini ta‘minlash, oilalar uchun daromad manbai yaratishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–5242-son, 2018 yil 27 iyundagi ««Yoshlar-Kelajagimiz» Davlat dasturi to‘g‘risida»gi PF–5466-son Farmonlari, 2018 yil 26 apreldagi «Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3680-son, 2018 yil 7 iyundagi «Har bir oila — tadbirkor» dasturini amalga oshirish to‘g‘risida»gi PQ–3777-son va 2018 yil 14 iyuldagi «Aholi bandligini ta‘minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ–3856-son qarorlari asosida imtiyozli kreditlar oilaviy tadbirkorlik, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish va faoliyat turini kengaytirish istagini bildirgan aholi hamda tadbirkorlik sub‘yektlariga yillik 8 foiz stavkada 3-6 oygacha bo‘lgan imtiyozli davr bilan 3 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ajratiladi. Bunda, 2020 yil 1 yanvardan boshlab kreditlar AT Xalq banki, «Mikrokreditbank»



ATB va «Agrobank» ATB orqali O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasida ajratish imkoniyatlari yaratildi.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni ijro etish, jumladan, biznes sohasi vakillari va davlat organlari o‘rtasida samarali muloqot va foydali hamkorlik mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, xususiy mulk va tadbirkorlikning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli muhofaza qilish kafolatlarini kuchaytirish, biznes-muhitni takomillashtirish masalalari bo‘yicha, shuningdek, tadbirkorlik sub’yektlariga sifatli davlat xizmatlari taqdim etilishini ta‘minlash davlat organlari va tadbirkorlik tuzilmalarining o‘zaro hamkorligini, ayniqsa, tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatini endi boshlagan davrlarda ularni qo‘llab-quvvatlashning yangi samarali tizimlari yaratilmoqda.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta‘minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash, aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish borasidagi ishlarni samarali amalga oshirish maqsadida Prezidentning 2020 yil 18 fevraldagi farmoni hamda qaroriga muvofiq, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. Mahalla – tuman (shahar) – viloyat – respublika darajasida tadbirkorlikni rivojlantirish va kambag‘allikni kamaytirishga mas‘ul lavozimlar joriy qilinib, vertikal tizim yaratildi.

Tadbirkorlikning rivojlanishi ko‘p omillarga, birinchi navbatda tadbirkorning bilimi, tajribasi va ishbilarmonligiga bog‘liq. Bugungi kunning tadbirkori menejment, rahbarlik usullari asoslari, iqtisodiy masalalar bo‘yicha biznesni rejalashtirish, xo‘jalik faoliyatini tahlil etish, chiqimlarni kamaytirib, foydani ko‘paytirish, shuningdek, huquq va psixologiya sohasi kabi bilimlarni egallashi zarur. Chunki zamonaviy ishlab chiqarish juda murakkab, texnika vositalari va texnologiyalar muttasil takomillashib bormoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasi tadbirkorlik milliy iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishda, uni barqaror sur‘atlar bilan rivojlantirishni ta‘minlashda, texnik hamda texnologik qayta jihozlash, yangi turdagi mahsulotlarni o‘zlashtirishda o‘ta muhim rol o‘ynashidan, ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to‘ldirishning asosiy manbasi ekanligidan yaqqol dalolat beradi. O‘zbekiston uchun xususiy tadbirkorlikning mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta‘minlash yoki o‘zini o‘zi band qilish, uning daromadini oshishidagi ahamiyati, ayniqsa, muhimdir.

Yoshlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda ham katta kuch. Respublikamizda 230 mingga yaqin yosh tadbirkor va fermerlar, mohir hunarmandlar faoliyat olib bormoqda. Ularning safi yanada kengayishi uchun davlat tomonidan zarur shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

Faqatgina “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi doirasida yosh avlod vakillarining 8 mingtaga yaqin biznes loyihasiga 1 trillion 630 milliard so‘mdan ziyod imtiyozli kredit mablag‘lari ajratildi, natijada 40 mingga yaqin yangi ish o‘rni tashkil etildi.

Navqiron avlod tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashda respublikamizda tashkil etilayotgan “Yosh tadbirkorlar” kovorking-markazlari va “Yoshlar mehnat guzarlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ularda tadbirkorlik ko‘nikmalarini egallagan yoshlar mustaqil faoliyatini boshlashmoqda. Qishloq joylarida esa “Har bir yoshga – bir gektar” loyihasining amalga oshirilishi natijasida 65 mingga yaqin yosh dehqonlarga 54 ming gektardan ziyod yer ajratib berildi.

### **ADABIYOTLAR**

1. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash - bizning oliy maqsadimiz. 17-jild. -T.: “O‘zbekiston”, 2009.
2. Ibrohim Maxmudov. Boshqaruv psixologiyasi. -T.: “YUNAKS-PRINT”2006 yil.
3. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. -T.: “Akademiya”, 2006.
4. Ma'naviy yuksalish yo‘lida. -T.: “Ma'naviyat”, 2008.
5. Omonov B. Siyosiy yetakchining notiqlik mahorati. -T.: “O‘zbekiston”, 2000.
6. Razzoqov Sh. Rahbarlik san'ati. -T.: “Sharq”, 1997.
7. Raximova D., Bekmurodov M. Liderlik va tashkilot madaniyati. -T.: “Akademiya”, 2006.
8. Xolbekov A.J. Boshqaruv sotsiologiyasi. -T.: “Akademiya”, 2008.
9. [eview.uz/uz/post/ozbekistonda-yoshlar-tadbirkorligini-qollab-quvvatlash-va-rivojlantirishda-amalga-oshirilayotgan-islohotlar-samarasi](http://eview.uz/uz/post/ozbekistonda-yoshlar-tadbirkorligini-qollab-quvvatlash-va-rivojlantirishda-amalga-oshirilayotgan-islohotlar-samarasi).
10. <https://uza.uz/oz/>.